



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdamova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атхамович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aytiyeva Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI.....	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sherov Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	
MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH	169
Feruza Nabieva	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH	176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
O'ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODELI.....	183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI.....	188
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	194
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
SANOAT KORXONALARI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI	198
Jabborov Elbek Erkin o'g'li	
SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISHNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	202
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	208
Egamov Temur Muzaffarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLYAVIY RAG'BATLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	213
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURLIGI.....	217
Achilova Firuza Kurbanovna	
INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ORQALI MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	222
Ergashev Olim	



KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR	227
Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	233
Isakjanova Saboxat Muhamedovna	
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA AKSIYADORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	238
Xakimov Uchkun Xamitovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MILLIY MAKROIQTISODIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	242
Mardanova Ra'no Isakovna	
XUSUSIY VA DAVLAT SHIFOXONALARI UCHUN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI QIYOSIY TAHLIL	246
Yakubov Temur G'anibekovich	
RAQAMLI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA RESURS SAMARADORLIGI VA IQTISODIY NATIJADORLIK MODELI	250
Ziyodullayev Qahramon	
"MILLIY TURIZM SITUATSION-MONITORING MARKAZI" VA "YASHIL TUROPERATORLAR" FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI	254
Toshev Akmal Salimovich	
RISK-MENEJMENT VA MOLIYAVIY BARQARORLIK O'ZARO BOG'LIQLIGINING KONSEPTUAL MODELINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI	261
Madaminov Bekzod Allayarovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT: BAHOLASH METODOLOGIYASI, DINAMIKASI VA QISQARTIRISH ISTIQBOLLARI (1996 – 2026-YILLAR TAHLILI)	266
Djumanova Rano Fayzullayevna	
OLIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA MAJMUALI DIAGNOSTIK MODELNING AMAL QILISH XUSUSIYATLARI	272
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	278
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	282
Nigora Nurmatova	
BANK SEKTORINING INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISHDAGI STRATEGIK O'RNI	287
Abdumavlonov Abdumutal Abdumajid o'g'li	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA UZOQ MUDDATLI MOLIYAVIY INVESTITSIYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	291
Allabergenova Nilufar Shermetovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA TA'MINOTLI YIRIK KREDITLAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR CHIQRISH ORQALI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI	298
Ahmedov Akbarali Sultonmurodovich	
"MINTAQA SANOATI SALOHİYATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI"	306
Abdinazarov Xusan Shaymanovich	
BUDJET TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MAJBURIYATLAR: MAZMUNI, TURLARI VA TARKIBI	309
Jabbarova Charos Aminovna	
ATROF-MUHIT VA EKOLOGIK IQTISODIYOT: TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RESURLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA UNING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	316
Alikulov Samar Abdirashidovich	
O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASI RIVOJLANISHIDA FORSAYT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH	322
Turdibekov Xasan Ibragimovich	
АНАЛИЗ ДЕБИТОРСКОЙ И КРЕДИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩЕГО СУБЪЕКТА	329
Камолова Феруза Кахрамоновна	



TASHQI QARZNING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI: QARZ BARQARORLIGINI BAHOLASH MODELLARI ASOSIDA O'ZBEKISTON MISOLIDA TAHLIL	333
Oliyeva Kumushoy Ahmad qizi, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQLARNI TARTIBGA SOLISHNING TAHLILI	339
Kudiyarov Kishibay Ramatullaevich	
KORXONALAR FAOLIYATINING IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORI TAJIRIBASI	343
Iminova Nargizaxon Akramovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING TO'LOVGA QOBILIVATLILIGINI BOSHQARISHDA RISK VA RISK-MENEJMENTNING O'RNI	350
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
BUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA KAMCHILIKLAR	354
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Xasanboyeva Muyassar Ubaydullayevna	
XUSUSIY KORXONALARDA KADRLAR MENEJMENTI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	358
Alimova Dildora Damirovna	
BANK TRANSFORMATSIYASI TUSHUNCHASI VA UNING MENEJMENTDAGI O'RNI	363
Rajabov Oybek Panjievich	
O'ZBEKISTON OZIY-OVQAT SANOATIDA ISHLAB CHIYARISH SAMARADORLIGINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	367
Eshtemirova Anora Norboy qizi	
BOZOR KONYUNKTURASIGA MOS PIYOZ YETISHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	371
Sadikova Shohida Obidqul qizi	
HUDUDLARDA MAISHIY XIZMATLAR SOHASINI KLASTERTASH VA RESURS SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	375
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna	
XUSUSIY VA KORPORATIV TUZILMALARDA AUDITORLIK TEKSHIRUVI HAMDA AUDITORLIK XULOSASINI SHAKLLANTIRISH AMALIYOTI	380
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich	



XUSUSIY VA KORPORATIV TUZILMALARDA AUDITORLIK TEKSHIRUVI HAMDA AUDITORLIK XULOSASINI SHAKLLANTIRISH AMALIYOTI



Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich

Namangan davlat texnika universiteti dotsenti, DSc

E-mail: xulugbek1984@gmail.com

ORCID: 0000-0002-3589-373X



Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich

Namangan davlat texnika universiteti

Buxgalteriya hisobi kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009-0005-7364-2105

Annotatsiya. Mazkur maqolada xususiy va korporativ tuzilmalarda auditorlik tekshiruvini amalga oshirish hamda auditorlik xulosasini shakllantirishning amaliy jihatlarini tizimli ravishda yoritilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va shaffofligini ta'minlashda auditorlik tekshiruvini muhim nazorat va ishonch mexanizmi sifatida namoyon bo'lishi asoslab berilgan. Tadqiqotda xususiy va korporativ subyektlar faoliyatida auditning maqsadi, turi, ko'lamini hamda ichki nazorat tizimining rivojlanganlik darajasi bo'yicha farqlar tahlil qilingan. Shuningdek, auditorlik xulosasining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, jumladan, risklarga asoslangan yondashuv, tashkiliy-huquqiy shakl va boshqaruv modeli xususiyatlari ochib berilgan. Amaldagi qonunchilik talablari asosida tashabbusli va majburiy auditorlik tekshiruvlarining o'rnini yoritilib, auditorlik xulosasining investitsion qarorlar, korporativ boshqaruv va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati asoslangan. Tadqiqot natijalari auditorlik faoliyatini takomillashtirish va audit sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: auditorlik tekshiruvini, auditorlik xulosasi, xususiy tuzilmalar, korporativ tuzilmalar, moliyaviy hisobot, ichki nazorat tizimi, majburiy audit, tashabbusli audit, korporativ boshqaruv, moliyaviy risklar.

Abstract. This article systematically examines the practical aspects of conducting audit engagements and forming audit opinions in private and corporate structures. It substantiates that under market economy conditions, auditing serves as an essential control and assurance mechanism ensuring the reliability and transparency of financial statements. The study analyzes differences in audit objectives, types, scope, and the level of development of internal control systems in private and corporate entities. In addition, factors influencing the formation of audit opinions are identified, including a risk-based approach, organizational and legal form, and specific features of management models. Based on current legal requirements, the role of voluntary and mandatory audits is highlighted, and the importance of audit opinions in investment decision-making, corporate governance, and financial stability is justified. The research findings contribute to improving audit practices and enhancing audit quality.

Key words: audit, audit opinion, private entities, corporate entities, financial statements, internal control system, mandatory audit, voluntary audit, corporate governance, financial risks.



Аннотация. В статье системно рассмотрены практические аспекты проведения аудиторской проверки и формирования аудиторского заключения в частных и корпоративных структурах. Обосновано, что в условиях рыночной экономики аудит выступает важным механизмом контроля и доверия, обеспечивающим достоверность и прозрачность финансовой отчетности. В исследовании проанализированы различия в целях, видах и масштабах аудита, а также в уровне развитости систем внутреннего контроля в деятельности частных и корпоративных субъектов. Кроме того, раскрыты факторы, влияющие на формирование аудиторского заключения, включая риск-ориентированный подход, организационно-правовую форму и особенности модели управления. На основе требований действующего законодательства освещена роль инициативного и обязательного аудита, а также обоснована значимость аудиторского заключения для принятия инвестиционных решений, развития корпоративного управления и обеспечения финансовой устойчивости. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования аудиторской деятельности и повышения качества аудита.

Ключевые слова: аудиторская проверка, аудиторское заключение, частные структуры, корпоративные структуры, финансовая отчетность, система внутреннего контроля, обязательный аудит, инициативный аудит, корпоративное управление, финансовые риски.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy va korporativ tuzilmalarning faoliyati moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, shaffof boshqaruvni yo'lga qo'yish hamda manfaatdor tomonlar o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlash bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, mulkdorlar, aksiyadorlar, investorlar va kreditorlar tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlarning asoslanganligi moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan axborotning haqqoniyligi va to'liqligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobotlarning ishonchligini mustaqil baholovchi, buxgalteriya hisobi yuritilishining amaldagi qonunchilik va belgilangan standartlarga muvofiqligini tasdiqlovchi muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Xususiy va korporativ tuzilmalarda auditning joriy etilishi nafaqat nazorat funksiyasini amalga oshiradi, balki moliyaviy risklarni aniqlash, ichki nazorat tizimini baholash hamda boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xususiy va korporativ tuzilmalarda auditorlik tekshiruvini tashkil etish hamda auditorlik xulosasini shakllantirish amaliyoti subyektlarning tashkiliy-huquqiy shakli, kapital tuzilmasi va boshqaruv modeliga bog'liq holda sezilarli darajada farqlanadi. Xususan, korporativ tuzilmalarda aksiyadorlar manfaatlarini muvozanatlashtirish, axborot oshkoraligini ta'minlash va investitsion jozibadorlikni oshirish zarurati auditorlik xulosasiga qo'yiladigan talablarni nisbatan kuchaytiradi. Xususiy tuzilmalarda esa auditorlik tekshiruvlari, asosan, mulkdorlar va rahbariyat ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi hamda boshqaruv qarorlarini takomillashtirishga yo'naltiriladi. Shu bois auditorlik xulosasini shakllantirish jarayonida risklarga asoslangan yondashuvni qo'llash, ichki nazorat tizimining holatini chuqur tahlil qilish va audit natijalarining axborot qiymatini oshirish dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida e'tirof etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Auditorlik tekshiruvi va auditorlik xulosasini shakllantirish masalalari iqtisodiy fanlarda, xususan, buxgalteriya hisobi, audit va korporativ boshqaruv yo'nalishlarida keng miqyosda tadqiq etib kelinmoqda. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda auditorlik faoliyati moliyaviy axborotning ishonchligini oshirish, axborot assimetriyasini kamaytirish hamda investorlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiluvchi muhim institutsional mexanizm sifatida talqin etiladi. Jumladan, Arens, Elder va Beasley tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda auditorlik tekshiruvining asosiy vazifasi moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini mustaqil baholash orqali bozor ishonchini mustahkamlashdan iborat ekani asoslab berilgan [1]. Mualliflar auditorlik xulosasining sifati auditorning mustaqilligi, professional malakasi hamda riskka asoslangan yondashuvni qo'llash darajasi bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydilar.

Korporativ tuzilmalarda auditorlik tekshiruvi va auditorlik xulosasining o'rniga bag'ishlangan tadqiqotlarda audit korporativ boshqaruv tizimining ajralmas elementi sifatida qaraladi. Jensen va Mecklingning agentlik nazariyasiga asoslangan yondashuviga ko'ra, auditorlik tekshiruvi menejerlar va aksiyadorlar o'rtasidagi manfaatlar ziddiyatini yumshatishga xizmat qiladi [2]. Ushbu yondashuv doirasida auditorlik xulosasi moliyaviy hisobotlar orqali taqdim etilayotgan axborotning haqqoniyligini tasdiqlovchi ishonch instrumenti sifatida baholanadi. Shuningdek, DeAngelo auditorlik xizmatlari sifatini auditorning obro'si va mustaqilligi bilan bog'lab, yirik auditorlik tashkilotlari tomonidan berilgan auditorlik xulosalari bozor ishonchini oshirishini ilmiy jihatdan asoslab bergan [3].



MDH mamlakatlari hamda O'zbekiston olimlarining ilmiy ishlarida auditorlik tekshiruvining milliy xususiyatlari, huquqiy asoslari va amaliy jihatlar alohida o'rganilgan. Xususan, O'zbekistonlik tadqiqotchilar auditorlik faoliyatini rivojlantirishda milliy qonunchilikni xalqaro audit standartlariga moslashtirish muhimligini ta'kidlaydilar [4]. Ularning fikricha, xususiy va korporativ tuzilmalarda auditorlik xulosasining mazmuni subyektning tashkiliy-huquqiy shakli, faoliyat ko'lami hamda risklar darajasini inobatga olgan holda differensial yondashuv asosida shakllantirilishi lozim. Shu bilan birga, auditorlik tekshiruvining tashabbusli va majburiy shakllari o'rtasidagi farqlarni aniq belgilash audit natijalarining axborot qiymatini oshirishga xizmat qilishi qayd etiladi [5].

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xususiy va korporativ tuzilmalarda auditorlik tekshiruvini hamda auditorlik xulosasini shakllantirish masalalari ko'p qirrali xususiyatga ega bo'lib, ular moliyaviy shaffoflikni ta'minlash, risklarni kamaytirish va korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish bilan uzviy bog'liqdir. Shu bilan birga, milliy amaliyotda auditorlik xulosasining axborot mazmunini yanada boyitish va uni manfaatdor tomonlar ehtiyojlariga moslashtirish masalalari yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagani ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot xususiy va korporativ tuzilmalarda auditorlik tekshiruvini o'tkazish hamda auditorlik xulosasini shakllantirish amaliyotini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotning nazariy-metodik asosini auditorlik faoliyati va korporativ boshqaruvga oid milliy hamda xorijiy ilmiy manbalar, shuningdek amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya kabi umumilmiy metodlardan foydalanilib, auditorlik tekshiruvining mazmuni hamda auditorlik xulosasini shakllantirish jarayonlari tizimli yondashuv asosida o'rganildi.

Xususiy va korporativ tuzilmalarda auditorlik amaliyotining o'ziga xos jihatlarini aniqlash maqsadida taqqoslash va guruhlash metodlari qo'llanildi. Risklarga asoslangan audit yondashuvi doirasida moliyaviy va operatsion risklar mantiqiy tahlil asosida baholandi hamda ularning auditorlik xulosasida aks ettirilish darajasi o'rganildi. Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar va auditorlik standartlari talablari metodologik asos sifatida qabul qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xususiy va korporativ tuzilmalarda xo'jalik yuritish jarayonlari bozor mexanizmlariga bevosita tayangan holda amalga oshiriladi hamda ularning moliyaviy natijalari, asosan, mulkdorlar, aksiyadorlar va investorlar manfaatlar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Ushbu sharoitda moliyaviy hisobotlarning ishonchligi va oshkoraligi korporativ boshqaruv samaradorligini ta'minlash, investitsion qarorlarni asoslash hamda moliyaviy risklarni baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois xususiy va korporativ tuzilmalarda auditorlik tekshiruvini moliyaviy axborotning haqqoniyligini mustaqil tasdiqlovchi hamda manfaatdor tomonlar o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlovchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Xususiy va korporativ subyektlarda auditorlik xulosasini shakllantirish amaliyoti auditning umumiy tamoyillariga asoslangan bo'lsa-da, u subyektlarning tashkiliy-huquqiy shakli, kapital tuzilmasi, boshqaruv modeli hamda biznes risklari bilan belgilanadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va o'tkazish jarayonida ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash, moliyaviy natijalarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish hamda aniqlangan risklarni auditorlik xulosasida to'g'ri va asosli aks ettirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan mazkur bo'limda xususiy va korporativ tuzilmalarda auditorlik tekshiruvini hamda auditorlik xulosasini shakllantirishning amaliy jihatlarini tizimli tarzda yoritiladi.

1-jadval. Xususiy va korporativ tuzilmalarda auditorlik tekshiruvini hamda auditorlik xulosasini shakllantirishning asosiy jihatlarini

Taqqoslash mezonlari	Xususiy tuzilmalar	Korporativ tuzilmalar
Audit o'tkazishdan asosiy maqsad	Mulkdor manfaatlarini himoya qilish, moliyaviy natijalarni baholash	Aksiyadorlar va investorlar manfaatlarini himoya qilish, korporativ boshqaruvni ta'minlash
Audit turi	Asosan tashabbusli (ixtiyoriy) audit	Majburiy va tashabbusli audit keng qo'llaniladi
Ichki nazorat tizimi	Nisbatan soddaroq, cheklangan	Murakkab va ko'p pog'onali
Auditorlik tekshiruvining ko'lami	Faoliyat hajmi va risklarga bog'liq holda belgilanadi	Konsolidatsiyalashgan hisobotlar va sho'ba jamiyatlarni qamrab oladi



Auditorlik xulosasining yo'naltirilganligi	Asosan mulkdor va rahbariyat uchun	Aksiyadorlar, investorlar, kreditorlar va tartibga soluvchi organlar uchun
Risklarga e'tibor	Operatsion va moliyaviy risklar	Moliyaviy, korporativ va axborot oshkoraligi risklari
Xulosa mazmunining chuqurligi	Qisqaroq, aniq muammolarga yo'naltirilgan	Batafsil, izohli va keng qamrovli
Audit natijalaridan foydalanish	Boshqaruv qarorlarini takomillashtirish	Investitsion qarorlar va bozor ishonchini oshirish

1-jadval ma'lumotlari xususiy va korporativ tuzilmalarda auditorlik tekshiruvi hamda auditorlik xulosasini shakllantirish amaliyoti o'rtasida muhim farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Avvalo, audit o'tkazishdan ko'zlangan maqsad jihatidan xususiy tuzilmalarda auditorlik tekshiruvi, asosan, mulkdorlar manfaatlarini himoya qilish va moliyaviy natijalarni baholashga yo'naltirilgan bo'lsa, korporativ tuzilmalarda u aksiyadorlar, investorlar va kreditorlar manfaatlarini muvozanatlashtirish, shuningdek korporativ boshqaruv samaradorligini ta'minlash vazifasini bajaradi.

Audit turi va ko'lami bo'yicha ham sezilarli farqlar kuzatiladi. Xususiy tuzilmalarda tashabbusli audit ustunlik qilsa, korporativ tuzilmalarda majburiy audit keng qo'llaniladi hamda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar va sho'ba jamiyatlar faoliyati audit qamroviga kiritiladi. Mazkur holat auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va o'tkazishda risklarga asoslangan yondashuvning yanada murakkablashuviga olib keladi.

Ichki nazorat tizimining rivojlanganlik darajasi auditorlik xulosasining mazmuniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, xususiy tuzilmalarda ichki nazorat tizimi nisbatan soddaroq bo'lib, auditorlik xulosasi ko'proq aniqlangan muammolar va tavsiyalar bilan cheklanadi. Korporativ tuzilmalarda esa ichki nazorat hamda korporativ boshqaruv tizimining ko'p pog'onali tuzilishi auditorlik xulosasining batafsil va izohli shaklda rasmiylashtirilishini taqozo etadi.

Shuningdek, auditorlik xulosasining yo'naltirilganligi va undan foydalanish doirasi jihatidan ham farqlar mavjud. Xususiy tuzilmalarda auditorlik xulosasi, asosan, rahbariyat va mulkdorlar uchun ichki boshqaruv vositasi sifatida xizmat qilsa, korporativ tuzilmalarda u investitsion qarorlar qabul qilish, bozor ishonchini mustahkamlash va moliyaviy shaffoflikni ta'minlashda muhim axborot manbaiga aylanadi. Shu bois xususiy va korporativ tuzilmalarda auditorlik xulosasini shakllantirish amaliyotini differensial yondashuv asosida takomillashtirish audit sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Auditorlik tekshiruvi xususiy va korporativ tashkilotlarda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini, buxgalteriya hisobi yuritilishining qonuniyligini hamda ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash maqsadida amalga oshiriladi. Ushbu jarayon yakunida auditorlik xulosasi tuziladi, u investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

Amaldagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 36-moddasiga muvofiq, yuridik shaxs, uning mulkdori, ustav fondida (ustav kapitalida) kamida besh foiz ulushga ega bo'lgan ishtirokchilar va aksiyadorlar, shuningdek nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining buyurtmachilari bo'lishi mumkin. Nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar tashabbusi bilan auditorlik tekshiruvi auditorlik tashkiloti bilan tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi hamda ushbu shartnoma doirasida moliyalashtiriladi. Bunda ayni bir auditorlik tashkilotini bir xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini bir xil asoslar bo'yicha takroran tekshirishga jalb etishga yo'l qo'yilmaydi.

Tashabbus tarzida o'tkaziladigan auditorlik tekshiruvlari bilan bog'liq xarajatlar ushbu tekshiruvni o'tkazish tashabbusi bilan chiqqan shaxs yoki buyurtmachi tomonidan qoplanadi. Bu tartib auditorlik xizmatlarining shartnomaviy asosda bajarilishini, moliyalashtirish manbaining aniqligini hamda audit jarayonining mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi. Auditorlik tekshiruvining predmeti, muddati va boshqa shartlari auditorlik tashkiloti bilan buyurtmachi o'rtasida tuziladigan shartnomada belgilanadi.

Shu bilan birga, mazkur qonunning 35-moddasi 8-bandiga muvofiq, hisobot yili yakunlariga ko'ra quyidagi shartlardan kamida ikkitasiga bir vaqtning o'zida javob beradigan tijorat tashkilotlari majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi lozim: aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming baravaridan ortiq bo'lsa; mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan olingan tushum bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz ming baravaridan ortiq bo'lsa; xodimlarning o'rtacha yillik soni yuz nafardan ortiq bo'lsa.

Auditorlik tekshiruvi quyidagi asosiy bosqichlardan iborat: rejalashtirish, auditorlik tekshiruvini o'tkazish hamda hisobot va auditorlik xulosasini tuzish. Rejalashtirish bosqichida audit hajmi, maqsadi va tekshiriladigan yo'nalishlar aniqlanadi, tashkilot faoliyati va moliyaviy hisobotlari o'rganiladi, audit dasturi ishlab chiqiladi va risklar baholanadi. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish jarayonida moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi, ichki nazorat tizimining samaradorligi, buxgalteriya hujjatlari va xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligi tahlil qilinadi. Yakuniy bosqichda auditorlik xulosasi tayyorlanib, aniqlangan kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar buyurtmachi tashkilot rahbariyatiga taqdim etiladi.



Auditorlik xulosasi tarkibiy jihatdan sarlavha, kirish qismi, asosiy qism va auditorning yakuniy fikridan iborat bo'ladi. Auditorning yakuniy fikri ijobiy, shartli ijobiy, salbiy xulosa yoki xulosa berishdan bosh tortish shakllarida ifodalanishi mumkin.

Umuman olganda, yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, xususiy va korporativ tuzilmalarda auditorlik tekshiruvi hamda auditorlik xulosasini shakllantirish amaliyoti mulkdorlar va investorlar manfaatlarini himoya qilish, korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish hamda moliyaviy risklarni kamaytirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm hisoblanadi. Auditorlik xulosasi moliyaviy hisobotlarning ishonchligini tasdiqlash bilan bir qatorda, ichki nazorat tizimining holati, boshqaruv qarorlarining oqibatlari va biznes faoliyatidagi asosiy risklar to'g'risida muhim axborot beradi. Natijada, xususiy va korporativ tuzilmalarda auditorlik xulosasi nafaqat nazorat vositasi, balki investitsion jozibadorlikni oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiluvchi samarali boshqaruv instrumenti sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari xususiy va korporativ tuzilmalarda auditorlik tekshiruvi hamda auditorlik xulosasini shakllantirish amaliyoti moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlash, korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish va manfaatdor tomonlar o'rtasida axborotga bo'lgan ishonchni mustahkamlashda muhim institutsional mexanizm ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, auditorlik tekshiruvining maqsadi, ko'lami va uslubiy yondashuvi subyektning tashkiliy-huquqiy shakli, kapital tuzilmasi hamda faoliyat risklari bilan bevosita bog'liq bo'lib, mazkur omillar auditorlik xulosasining axborot mazmuni va yo'naltirilganligini belgilab beradi.

Xususiy tuzilmalarda auditorlik tekshiruvlari, asosan, mulkdorlar va rahbariyat ehtiyojlariga yo'naltirilgan bo'lib, auditorlik xulosasi ichki boshqaruv qarorlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Korporativ tuzilmalarda esa auditorlik xulosasi keng doiradagi manfaatdor tomonlar, jumladan, aksiyadorlar, investorlar, kreditorlar va tartibga soluvchi organlar uchun mo'ljallangan bo'lib, u investitsion qarorlar qabul qilish hamda bozor ishonchini mustahkamlashda muhim axborot manbai hisoblanadi. Bu holat auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonida risklarga asoslangan yondashuvni chuqurlashtirish, shuningdek ichki nazorat va korporativ boshqaruv tizimlarini kompleks baholash zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot xulosalari shuni ko'rsatadiki, xususiy va korporativ tuzilmalarda auditorlik xulosasini shakllantirishda differensial hamda tizimli yondashuvni qo'llash audit sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Auditorlik xulosasining mazmunini subyekt faoliyatining risk profili, boshqaruv modeli va moliyaviy shaffoflik darajasiga moslashtirish uning axborot qiymatini sezilarli darajada oshiradi. Natijada auditorlik xulosasi nafaqat nazorat hujjati, balki barqaror rivojlanishni ta'minlash, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish va moliyaviy risklarni kamaytirishga xizmat qiluvchi strategik boshqaruv instrumenti sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Arens A.A., Elder R.J., Beasley M.S. Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach. — 16th ed. — New York: Pearson Education, 2017.
2. Jensen M.C., Meckling W.H. Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure // Journal of Financial Economics. — 1976. — Vol. 3, No. 4. — P. 305–360.
3. DeAngelo L.E. Auditor size and audit quality // Journal of Accounting and Economics. — 1981. — Vol. 3, No. 3. — P. 183–199.
4. Karimov A.A., Rahimov M.X. Audit nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020.
5. O'zbekiston Respublikasi. "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — Amaldagi tahrir.
6. Кади́рова Х.Т. Некоторые взгляды на классификацию рынка ценных бумаг // Теоретические и практические аспекты развития науки в современном мире: материалы научной конференции. — 2019. — С. 81–86.
7. Кади́рова Х.Т., Мирзахоліков Б.Б. Проблемы развития инвестиционной политики на финансовом рынке и пути их решения // Интеграция науки и практики в современном мире: материалы научной конференции. — 2019. — С. 35–43.
8. Кади́рова Х. Модели и тенденции развития формирующихся финансовых рынков // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. — 2024. — T. 2, № 8.
9. Mashrabjonovna X.D. O'qituvchi innovatsion salohiyatini rivojlantirish zamonaviy o'qituvchini shakllantirishning asosiy omili sifatida // O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — 2025. — B. 63–66.
10. Mashrabjonovna K.D. Innovative competence and its determinants // Web of Teachers: Inderscience Research. — 2023. — Vol. 1, No. 4. — P. 20–23.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>